ACNE VULAGRISNI DAVOLASHDA PRP VA MEZOTERAPIYA

Eshboyev Egamberdi Husanovich, Tog‘ayev Axror Turaqulovich, Sultanov Akram Abduxolikovich, Onarov Nodir Norkobilovich

RIDVvaKIATM, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali

DOI: 10.67620/dermajournal.1730027

ANNOTATSIYA.

Oddiy husnbuzar (acne vulgaris) — seboreya, follikulyar giperkeratoz, Propionibacterium acnes ko‘payishi va yallig‘lanish jarayonlari bilan tavsiflanadigan keng tarqalgan dermatozdir. U asosan o‘smirlik davrida uchraydi, biroq kattalarda ham davom etishi mumkin. So‘nggi yillarda husnbuzar davosida regenerativ dermatologiya usullari, jumladan trombotsitlarga boy plazma (PRP) va mezoterapiya keng qo‘llanila boshladi. Ushbu ilmiy tezisda ushbu usullarning patogenetik asoslari va klinik samaradorligi yoritiladi.

Kirish.

Acne vulgaris butun dunyo bo‘yicha 80–90% o‘smirlarni qamrab oluvchi eng keng tarqalgan surunkali dermatozlardan biridir. Kasallikning patogenezida seboreya, follikulyar giperkeratoz, Propionibacterium acnes ko‘payishi va immun yallig‘lanish reaksiyalari asosiy mexanizmlarni tashkil qiladi. An’anaviy davolash usullari (mahalliy retinoidlar, benzoil peroksid, antibiotiklar va gormonal terapiya) ko‘plab hollarda samarali bo‘lsa-da, ayrim bemorlarda rezistentlik, nojo‘ya ta’sirlar va qaytalanish kuzatiladi.

So‘nggi yillarda estetik va regenerativ tibbiyot yo‘nalishida yangi metodlar ishlab chiqildi. Shulardan biri — trombotsitlarga boy plazma (PRP) terapiyasi bo‘lib, unda bemorning o‘z qonidan olingan plazmadagi o‘sish omillari yordamida terida regenerativ jarayonlar faollashadi. Yana bir muhim yo‘nalish — mezoterapiya bo‘lib, teri ichiga biologik faol moddalar (vitaminlar, aminokislotalar, mikroelementlar, gialuron kislotasi) yuboriladi. Bu usullar husnbuzarning klinik ko‘rinishlarini kamaytirish, izlarini davolash va teri sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ushbu metodlarning afzalliklari va samaradorligini ilmiy asoslash dolzarbdir.

Materiallar va usullar. PRP terapiya: bemordan venoz qon olinib, sentrifugalanadi va trombotsitlarga boy plazma teri ichiga yoki atrofiga in’yeksiya qilinadi. PRP fibroblastlarni faollashtirib, kollagen va elastin sintezini oshiradi.

Mezoterapiya: mikroin’yeksiyalar orqali vitaminlar, aminokislotalar, mikroelementlar, gialuron kislotasi kabi biologik faol moddalar yuboriladi. Bu usul yog‘ bezlari faoliyatini normallashtiradi, yallig‘lanishga qarshi va antioksidant ta’sir ko‘rsatadi.

Kombinatsiya: PRP va mezoterapiya birgalikda qo‘llanganda husnbuzar yallig‘lanish elementlari tezroq regressiyaga uchraydi va izlar kamayadi.

Natijalar. Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, PRP bilan davolangan bemorlarda husnbuzar izlarining regressiyasi va terining elastikligi yaxshilangan. Mezoterapiya terining umumiy tonusi va yog‘ bezlari faoliyatini nazorat qilishda samarali ekanligi qayd etilgan. Kombinatsiyalangan yondashuv an’anaviy davoga qo‘shimcha qilib qo‘llanganda yuqori klinik natijalar ko‘rsatgan.

Muhokama. PRP terapiya regeneratsiya jarayonini kuchaytirsa, mezoterapiya terining baryer funksiyasini yaxshilaydi. Ularning sinergik qo‘llanishi husnbuzarning o‘rta va og‘ir shakllarida izchil samaradorlik beradi. Biroq optimal protokollar va uzoq muddatli xavfsizlikni baholash uchun keng ko‘lamli randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar talab etiladi.

Xulosa. Oddiy husnbuzar davosida PRP va mezoterapiya zamonaviy, xavfsiz va samarali qo‘shimcha usullar sifatida o‘rin tutmoqda. PRP fibroblastlarni faollashtirish orqali kollagen va elastin ishlab chiqarilishini kuchaytiradi, bu esa izlarni kamaytiradi va teri sifatini yaxshilaydi.

Mezoterapiya esa teriga bevosita biologik faol moddalar yetkazib berish orqali yog‘ bezlari faoliyatini normallashtiradi, yallig‘lanishni kamaytiradi va umumiy regeneratsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.